
Paxta mavsumida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda

Qo'shtepa tumanida paxta yig'im terimi jadal suratda olib borilmoqda. Bugun dalalarda paxta terimi bilan band bo'lgan fuqarolarning aksariyati xotin-qizlar ekanligi barchani birdek quvontirib kelmoqda.

Qo'shtepa tumani hokimi o'rinbosari M.Yuldasheva va "Oqila ayollar" harakati rahbari D.Yusupovalar paxta terimi olib borilayotgan dalalarda bo'lib, terim sur'ati, xotin-qizlarimizning kayfiyati, ularga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

Astoydil mehnat qilib tumanimiz paxta hosilini yuksaltirishga o'z xissasini qo'shayotgan va oilasiga salmoqli daromad olib kirayotgan ayollarga sovg'alar ulashilib ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirildi.





2024-10-10 07:50:39